MASHHUR O‘ZBEK KOMPOZITORLARI VA ULARNING IJODIY FAOLIYATI

Mirmaxmudov Oyatillo Orifjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr O‘zbekiston musiqa san’atining rivojlanish yo‘nalishlarini, ayniqsa professional kompozitorlik maktabining shakllanish bosqichlarini yoritadi. Unda Mutal Burhonov, Muxtor Ashrafiy, Sulaymon Yudakov va To‘lqin Qurbonov singari yetuk kompozitorlarning ijodiy merosi tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor milliy an’analarni zamonaviy kompozitorlik uslublari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon simfoniya, opera, uvertyura va kamer janrlarda turli usullarda (kuyni garmoniyalash, qayta ishlash, iqtibos keltirish, original mavzu yaratish) amalga oshirilgan. Ayniqsa, T.Qurbonov polifonik va fugali shakllarni o‘zbek musiqasiga olib kirganligi, M.Burhonovning “Alisher Navoiy” operasi va M.Ashrafiyning “Bo‘ron” operasi milliy teatr sanatining yutug‘i sifatida baholanadi. Xulosa sifatida, XX asr mobaynida O‘zbekistonda o‘ziga xos milliy uslub, g‘oyaviy-badiiy jihatdan boy va jahon musiqa madaniyati bilan dialogga layoqatli kompozitorlik maktabi vujudga kelganligi ta’kidlanadi.

Kalit so ‘zlar: *Milliy musiqa, opera, teatr, balet, kompozitor, vokal, simfoniya, fuga, janr.*

KIRISH

XX asr o‘zbek musiqa san’ati tarixida ko‘plab mashhur kompozitorlar yetishib chiqdi. Ular milliy musiqa an’analarini zamonaviy kompozitorlik uslublari bilan uyg‘unlashtirib, yangi asarlar yaratdilar.

Mutal Burhonov o‘zbek professional musiqasining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. U ko‘plab simfonik asarlar, vokal kompozitsiyalar va sahna musiqalarini yaratgan. Kompozitor o‘z asarlarida milliy musiqa an’analarini zamonaviy uslublar bilan uyg‘unlashtirgan.

Muhtor Ashrafiy o‘zbek opera san’ati rivojida muhim rol o‘ynagan kompozitor hisoblanadi. U yaratgan opera va balet asarlari milliy sahna musiqasining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan.

Sulaymon Yudakov ham o‘zbek musiqa san’atining rivojiga katta hissa qo‘shgan kompozitorlardan biridir. Uning asarlarida xalq kuylarining ohangdorligi va milliy ruh yaqqol seziladi.

O‘bek professional musiqa va kompozitorlik san’atining arboblaridan biri Mutal Burhonov 1916- yilda Buxoro shahrida tug‘ilgan. U o‘nlab yirik simfonik musiqiy asarlar yozgan. “Bahoriy raqslar”, “Elegiya”, “Ey bulbul”, “Ishqida” ,“Dilbarimo” “Tabassum qilmading”, “Seni sog‘indim”, “Unutmas meni bog‘im”, “Yurak sadosi”, “Nega tark etding meni” ,“Topmayin yorni” kabi mashhur qo ‘shiqlar va romanslarni yaratgan. Mutal Burhonov O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifidir.

“Alisher Navoiy”. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat Akademik katta opera va balet teatr jamoasi 1990-yilning 25-noyabrida “Alisher Navoiy” nomli operani tomoshabinlarga havola qildi. Operaning musiqa muallifi

Mutal Burhonov, librettoni kompozitorning o‘zi, dramaturglar Izzat Sultonov va Otaqo‘zi Uyg‘unlarning shu nomli dramasi asosida yozgan.

Buyuk shoir, mutafakkir, davlat va jamoat arbobi bobokalonimiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag‘ishlangan bu tarixiy-biografik opera XV asrda sodir bo‘lgan ziddiyatli voqealar bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur sahna asarining premyerasini tomoshabinlar qizg‘in olqishlar bilan kutib olishlari tarixiy voqeaga aylanib ketgan edi. Kompozitor ulug‘ shoirning asarlarini doimiy ravishda mutolaa qilib keldi. Opera yozishdan avval u dastlab A. Navoiyning she’rlariga romanslar yozdi. 1943-yili Hamza nomidagi o‘zbek davlat Akademik drama teatri sahnasida qo‘yilgan “Alisher Navoiy” nomli dramaga musiqa bastaladi. 1968-yilda esa shoir Abdulla Oripov bilan hamkorlikda ulug‘ shoir tavalludining 525 yilligiga bag‘ishlab “Alisher Navoiy”ga qasida nomli vokal-simfonik poema kabi asarlari bilan murakkab opera yozishga zamin yaratdi.

Asarning badiiy-g‘oyaviy mohiyati, A. Navoiyning faqat she’riyat sultoni bo‘lib chegaralanib qolmasdan, uning butun hayoti muqaddas Vatanga faol xizmat qilish, katta-katta bino va inshootlar qurish, go‘zal bog‘lar yaratish, shular bilan birga davlatga va xalqqa xiyonat qiluvchi xudbin-yovuzliklarga qarshi kurashlari bilan chambarchas bog‘langan.

Navoiyning “Odami ersang demagil odami, oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” otashin hikmatli so‘zi opera g‘oyasining asosiy negizidir. Mazkur so‘z sahna pardasining peshtoqiga shior qilib yozib qo‘yilgan.

XX asrda o ‘bek musiqasi rivojlanishiga ulkan hissa qo ‘shgan ijodkor kompozitor, dirijor, pedagog, jamoat arbobi Muhtor Ashrafiy 1912-1975 yillarda yashab ijod qilgan. Uning hayoti va ijodi asosida yurtimizda musiqa san’atining shakllanish tarixini o‘rganish mumkun. Muhtor Ashrafiy uzoq yillar mobaynida o‘sha vaqtdagi Toshkent konservatoriya yonida yashagan. Umrining so ‘ngi kuniga qadar konservatoriya rektori sifatida faoliyat yuritgan. Kompozitor yashagan uy hozirda uy muzeyiga aylantirilgan. Muzey kompozitorning butun hayot va ijodi bilan bog‘liq hotiralarni o‘zida mujassam etadi. Muhtor Ashrafiy kompozitorlik ilmini professor Sergey Nikolayevich Vasilenkodan olgan. Kompozitor Buxorolik mashhur xofiz va sozanda Ashrafjon xofiz oilasida dunyoga kelgan. Bolaligidan musiqaga qiziqishi va qobiliyati bo‘lgan. U kichikligidan dutor va tanbur chalishni bilgan. Kompozitorning ona shahri Buxorodan bo ‘lgan xotirasi uning “Bo‘ron” nomli operasida o‘z ifodasini topgan. Mazkur asar birinchi o‘zbek operasi hisoblanadi. Ushbu opera 1939-yil sahnalashtirilgan u uzoq yillar davomida teatr sahnasida ijro etilgan.

Muhtor Ashrafiy ustozi Vasilenko bilan birgalikda Komil Yashin librettasi asosida yozgan operasi birinchi martda 1939- yilda sahnalashtirilgan.U uzoq yillar mobaynida teatr sahnasida ijro etilgan. Muhtor Ashrafiy o ‘zining birinchi simfoniyasi (Героическая) Qahramonlik simfoniyasini ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan.

1977-yili kompozitor M.Bofoyev “Bayram uvertyurasi”ni musiqa shinavandalariga havola qildi. Asar sonata allegrosi shaklida yozilgan. Bu mukammal ravishda milliy intonatsiya usullari bilan boyitilgan original musiqiy sadolar simfonik orkestrning turli cholg‘u guruhlarida tovlanib zamon ruhini yaqqol tarannum etadi. Uvertyura muqaddima bilan boshlanadi va ajoyib jo‘sh – xuruj tez harakatli usul bilan

sug‘orilgan bosh partiya kiritiladi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston kompozitorlari va ularning mustaqil ijodlari tufayli respublikamizda xilma-xil, rang-barang, milliy ruhda yaratilgan uvertyuralar bunyodga keldi.

1961-yil To‘lqin Qurbonov o‘zbek kompozitorlik ijodida, polifonik uslub namoyandasi sifatida tanildi. Uning yaratgan sim- fonik asarlari o‘zbek milliy musiqiy ohanglariga asoslanganligi bilan qadrlidir. Ilk simfoniyasi to‘rt qismli simfoniya bo‘lib, diplom ishi sifatida taqdim etilgan. 1963-yilda Buzruk maqomidan “Saxabori Buzruk” qismini simfonik orkestr uchun qayta ishladi.

Asar polifonik uslubda yaratilgan va ijobiy baholangan. Bu borada kompozitorning o‘zi: “O‘zbekcha zamonaviy cholg‘u musiqasini yaratishda yoki qayta ishlashda garmoniyaga nisbatan polifoniya uslubi yo‘nalishidan foydalanish qulayroq” degan fikr bildiradi.

Haqiqatan ham T.Qurbonov polifoniyaning uslubiy yo‘nalish qoidalarini, shaklan tuzilishlarini barcha yaratgan simfonik asarlarida keng ravishda qo‘lladi. Bunga kompozitorning simfonik orkestr uchun yaratgan “Fuga”si (1966), “Prelyudiya va fuga”, “To‘yona” (1976), “Tarix sahifalari” nomli prelyudiya va fuga (1983), kamer simfonik orkestr uchun “Askiya” kabi asarlari yorqin misol bo‘la oladi. U katta simfonik orkestr uchun mustaqil ravishda 1964-yili ikkinchi, 1966-yil uchinchi, 1975-yil to‘rtinchi, 1999-yil to‘qqizinchi simfoniyalarini yaratdi. Kamer simfonik orkestr uchun 1977-yil “Hamza” nomli va 1985-yil oltinchi simfoniyalarni, o‘zbek xalq cholg‘u orkestri uchun 1990-1991-yillarda ikkita simfoniyani musiqa muxlislariga havola qildi.

Misol sifatida T.Qurbonovning 3-simfoniyasini keltiramiz: Kompozitorning 3-simfoniyasi ikki qismli bo‘lib, ikkinchi qismi fuga shaklida yozilgan. Uning vazmin sur’atli, maqom usullari intonatsiyalari bilan sug‘orilgan tema rivojlanish jarayonida birinchi qism mavzusi bilan kontrapunkt orqali payvand bo‘lishi asarni ta’sirchan quvvatini boyitish bilan birga qarama-qarshi, tez-tez o‘zgarib turadigan dinamikasi, modulatsion o‘zgarishlar tufayli, orkestrning butun sadolari qahramona-dramatik qiyofaga kirishiga ko‘mak beradi. Aslida, ikkinchi qismning birinchi mavzusi fuga ekspozitsiyasining hamma qoidalariga muvofiq tuziladi, ammo birinchi qismdagi bosh mavzu ustuvor bo‘lib, finalda boshdan-oyoq stretto orqali sonata-allegro bilan fuga simfoniyani rivojlantiruvchi funksiyasini birlashtiradi va rivojlantiradi. Ushbu uslubiy yo‘nalish T.Qurbonovning polifoniya va kontrapunktga bo‘lgan munosabati, uning ijodiy konsepsiyasiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1."Kompozitor" // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2000-2005.

2. Haydarova, V. XX-asr o‘zbek kompozitorlik ijodiyotida simfonik musiqa // Journal of music and art. – 2021. – №2(1).

3.“O ‘zbek san’ati tarixi” (o‘quv uslubiy qo‘llanma). -Farg‘ona, 2021.

4.“O ‘zbekiston madaniyati namoyondalari”. -Toshkent, 2001.

5.https://mtrk.uz/